

6-7 ASRLARDA G‘ARBIY TURK XOQONLIGIDA MADANIY HAYOT

Qulmatova Gulhayo

Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on tumani 77 - maktab tarix fani o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA Ushbu maqolada 6-7 asrlarda G‘arbiy Turk xoqonligida madaniy hayoti va hududidagi siyosiy hamda etnik jarayonlarining qay tarzda borayotganligi to‘g‘risida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: O‘rta Osiyo, Turk xoqonligi, Eftallar davlati, El Arslon, G‘arbiy Turk xoqonligi, Buxoro, Farg‘ona turklari, Usturshona, Ibn Xavqal.

Kirish

O‘zbekiston va qolaversa, Markaziy Osiyo tarixining ilk o‘rta asrlar bosqichi (V - VIII asr birinchi yarmi) o‘ziga xos tarixiy jarayonlari bilan ahamiyatlidir. III - IV asrlarga kelib, Kushon va Qang‘ kabi davlatlar tanazzuli kuchayib, ular o‘rniga siyosiy jihatdan mustaqil va mahalliy ma‘muriy boshqaruviga ega davlatlar (Afrig‘iylar, Choch va Farg‘ona) va davlat uyushmalari (Sug‘d va Toxariston konfederasiyalar) vujudga keldi. Ularning shakllanishida mintaqada kechgan ijtimoiy-siyosiy va etnomadaniy jarayonlar muhim rol o‘ynadi. Xususan, ikki yirik etnik guruh: hind-yevropa tillari oilasiga mansub sug‘diylar, xorazmiylar, boxtariylar va oltoy tillari oilasi vakillari – turkiylarning o‘ziga xos sinkretik yaqinlashuvi kuchaydi. Prototurk qabilalari uyushmasi “turk” nomi ostida mintaqada yetakchi mavqeyega chiqq boshladi. Natijada, bu hodisa etnomadaniy jarayonlarni takomillashtirdi.

G‘arbiy Turk xoqonligi (qadimiy turkcha:, o‘qilishi: *On oq budun*)- Qora dengiz va Dondan Tyon-Shon va shimoliy-sharqiy Hindiston sharqiy shoxlariga qadar joylashgan dastlabki o‘rta asr turkiy davlati (603-704).

Xoqonlikning g‘arbiy mulki janubiy-sharqiy Yevropaning dashtlariga yetib bordi. Davlatning o‘zagini Yettisuv viloyati tashkill qilgan. Uni Ashina sulolasidan bo‘lgan

kagonlar boshqargan. Xazar xoqonligi undan ajralib chiqdi. Gʻarbiy turk xoqonligi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan Sharqiy xoqonlikdan mutloqo ajralib turgan.

Xoqonlik oʻzining qudratining eng yuqori choʻqqisiga Sheguy xoqon (610-618 yillarda) va uning ukasi Tun-yabgʻu-xoqon (618-630 yillarda) davrida erishgan. Toxariston va Afgʻonistonga yangi yurishlar davlat chegaralarini Hindistonning shimoli-gʻarbiy qismigacha kengaytirdi. Tun-yabgʻu xoqon maʼmuriy islohotni amalga oshirdi va oʻlpon yigʻishni nazorat qilish va nazorat qilish uchun mintaqadagi oʻz vakillari — tudunlarni tayinladi. Tun yobgʻu xoqon va Sheguy xoqon (610-618) davrida Xoqonlik Oltoyda, Tarim daryosi havzasida va Amudaryo boʻyida chegaralarni tikladi. Suyab va Ming-Buloq Gʻarbiy Turk xoqonlarining qarorgohiga aylandi. Vizantiya imperatori Tun-yobgʻu bilan ittifoqda xoqon 626 yilda Sosoniylarga qarshi urush boshladi. 626 yilda turkiy qoʻshinlar Tiflisni egallab oldilar. Biroq, Vizantiya va Eron oʻrtasida tinchlik shartnomasining tuzilishi Tun-yobgʻu xoqonni harbiy harakatlarni toʻxtatishga majbur qildi. 630 yilda Ton-Yobgʻu xoqon amakisi Sibir Xon tomonidan uyushtirilgan fitna natijasida oʻldirildi. Tez orada u ham oʻldirildi. 630 yilda boshlangan taxt uchun kurash uzoq davom etgan urushga aylandi.

Qadimgi turkiy yozuv (Orxon-Yenisey yozuvi) — Oʻrta Osiyoda milodning VII-X asrlarida turkiy tillarda yozish uchun ishlatilgan yozuv. Qadimgi turkiy yozuv oʻsha davrning adabiy tilida (supra-dialektik koine) ishlatilgan boʻlib, u ham Orxon-Yenisey yozuvlari tili deb ataladi. Qadimgi turkiy yozuvda yozilgan yodgorliklar asosan epigrafik, Sharqiy va Gʻarbiy turklar, Turkashlar, Qorluqlarning davlat shakllari boʻlgan Oʻrta Osiyo va Sibir, Mongoliyaning oʻsha mintaqalarida yaratilgan. Yozuvlarda turklarning madaniy darajasi, ularning adabiyoti, tarixiy bilimlari aks etgan. Fargʻona vodiysi hududida qadimgi turkiy tilda 20 dan ortiq runik yozuvlar topilgan. Turk xoqonligi toʻgʻrisida bitiktoshlarda qimmatli maʼlumotlar berilgan. Bunga Kultegin bitiktoshi, Bilga xoqon bitiktoshi, Toʻn-Yuquq bitiktoshini misol qilish mumkin. Turkiylar tarixi uchun bitik yozuvlar avvalo asosiy manba boʻlsa, undan keyin yozma adabiyotning ilk namunasi hamdir. Olim Nasimxon Rahmonning fikricha turkiylar

qanchalik katta hududni egallagan bo'lsalar, ular yaratgan yodnoma bitiklar ham shunchalik katta hududga yoyilgan. Ular quyidagilardan iborat:

1. Shimoliy Mo'g'uliston yodnomalari.
2. Lena - Boyko'lbo'yi yodnomalari.
3. Oltoy yodnomalari.
4. Sharqiy Turkiston yodnomalari.
5. O'rta Osiyo guruhi yodnomalari.
6. Sharqiy Yevropa yodnomalaridir.

Turk xoqonligidagi xalqlarning bir qismi eftaliylar singari «J» lovchi shevalarda so'zlashganlar. VI asrga kelganda u «Y» lovchi lahjaga aylanib, davlat tili bo'lib qolgan. Turk yozuvi bilan bir qatorda sug'd va xorazm yozuvi ham keng qo'llanilganligini yuqorida ta'kidlagan edik. Sug'd yozuvi 25 ta belgidan iborat bo'lib, chapdan o'ngga qarab yozilgan. Ularning taqvimini bo'lgan. Bunday taqvimlar Tojikiston tog'laridan topilgan. Shaharlarda sug'd - turk ikki tilliligi rasmiy holat bo'lganligi Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida ham qayd etilgan. Xullas, o'tmish avlodlarimiz yuksak darajada qadimiy yozma madaniyatga ega bo'lgan deb qat'iy xulosa chiqarish uchun hamma asoslarga egamiz. Bu yozuv madaniyat durdonalari keyinchalik arablar va mo'g'ullar bosqini davrida yo'q qilib yuborilgan. Daliliy ashyolar VII asrda mamlakatimiz hududida savodxonlik kuchli bo'lganligidan guvohlik beradi. 5 yoshga to'lgan bolalar yozish va hisob-kitobga o'rgatilgan. 20 yoshga to'lganda esa savdo-sotiq bilan shug'ullanish uchun savdo karvonlariga qo'shib chet davlatlarga yuborilganligini tasdiqlovchi ma'lumotlar bor. Shahar aholisi asosan hunarmandchilik va savdo - sotiq bilan mashg'ul edi. Dehqonchilik va konchilikdagi taraqqiyot ko'lamini va sifati o'zidan keyingi uch tarmoq - hunarmandchilik, qurilish, savdo - sotiq ravnaqi uchun katta turtki bo'ladi. O'rta Osiyoning shu davrdagi Marv, Poykant Buxoro, Samarqand, Choch, Isfijob, Suyob kabi shaharlari savdo-sotiqning markazlari edi. Xitoy bilan savdo munosabatlari ayniqsa rivojlanib, 627 - 647 yillar mobaynida Xitoyga 9

marotaba savdo elchilari yuborildi. O'rta Osiyoda shu paytda 15 taga yaqin mayda davlatlar bo'lib, Buxoroda buxorxudotlar, Xorazmda xorazmshohlar, Choch va Iloqda bo'dun va dehqonlar, Farg'onada ixshidlar hukmronlik qilishgan. Ularning hammasi Turkiy xoqonlikka qaram bo'lsa-da, amalda yarim mustaqil edilar. VI-VII asrlarda Turk xoqonligi hududida yashagan xalqlar diniy nuqtayi nazardan turli-tuman g'oyalar ta'sirida bo'lganlar. Deyarli har bir urug' qabila va xalqning o'z diniy e'tiqodi bo'lgan. Shu boisdan turk qabilalarida ko'p xudolilik keng tarqalgan. Turk xoqonligi davrida ham O'rta Osiyoda animizm va shamanizm mavjud edi. Shuningdek, ota-bobolar ruhiga sig'inish ham turkiy xalqlar o'rtasida X asrga qadar keng tarqalgan diniy e'tiqodlardan bo'lgan. Bu hol ruh o'lmaydi, u narigi dunyoda ham yashaydi, degan tasavvurlardan paydo bo'ladi. Xususan, 576 yilda Istami xoqonni dafn qilish marosimida uning o'g'li otasining minib yurgan otlarini, shu bilan birga to'rt harbiy asirni otasining arvofiga qurbon qilgan. Muqan xoqon vafot etganida esa unga oxiratda xizmat qilish uchun 20.000 kishi o'ldirilib, birga ko'milgan. Qiyomat kunini turkiylar «Qoldirilgan kun» deb ataganlar. Turkiylar qabr toshlari, ya'ni bitiktoshlar yoniga odamlarning tosh haykalchalarini qo'yishgan. Ular «balballar» deyilgan. Bu balballar o'lgan odamning ruhiga bag'ishlangan yodgorlikdir. VI-VII asrlarda yuqoridagi diniy e'tiqodlardan tashqari turkiy xalqlar orasida zardushtiylik, buddizm, xristianlik va boshqa dinlar ham tarqalgan.

XULOSA

Xullas, shimoldan tez-tez yo'nalib turadigan turkiylar oqimi bu holning uzilib qolishiga yo'l qo'ymagan. Chunonchi, arab sayyohi Ibn Haldun "Dasht bu oddiy bo'lmagan hayot generatori" – deb yozganida u tamoman haq yedi. Umumiy holda aytadigan bo'lsak, bugungi O'zbekistonning janubi va markaziy hududidlarida xalqlarning aralashuvi jarayoni V asr oxiridan boshlab nihoyatda kuchayadi. Albatta bunga o'sha davrdagi siyosiy jarayon o'zining ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi. Chunonchi, VI asr o'rtalarida tashkil topgan ilk turkiy davlat – Birinchi Turk xoqonligi mintaqada kechgan siyosiy jarayonlar natijasi edi. Turk xoqonlari davriga oid manbalar,

tarixiy obidalar nisbatan kam saqlangan. Ammo Xitoy manbalarida ta'kidlanishicha, VI-VII asrlarda Turk xoqonligida tasviriy san'at, haykaltaroshlik ancha keng taraqqiy etgan. Ustrashona, Xolchayon, Dalvarzintepa, Fayoztepa, Panjikent harobalaridan topilgan naqshlar va suratlar bu fikrimizni yorqin ifoda etadi. Bu davrda kulolchilik san'ati ham rivoj topgan. Turk xoqonligi davrida yaratilgan moddiy madaniyat yodgorliklaridan biri loydan yasalgan har xil tasvirdagi haykalchalardir. Bu haykalchalar qo'lida kosa yoki qurol-yarog' ushlab turgan kishi shaklida bo'lib, odatda, ular qo'rg'oncha yoki marhumlar qabrlariga qo'yilgan. Shunday qilib, IV asrning oxiri va V asrning boshlaridan e'tiboran mamlakatimiz hududida feodal tuzumning ilk kurtaklari namoyon bo'la boshladi. Asta-sekinlik bilan feodal taraqqiyoti tomon rivojlanib borgan sari, mamlakatimiz xalqlari jahon taraqqiyotida o'ziga xos o'ringa ega bo'ldilar, jahon davlatchiligi, tsivilizatsiyasi va madaniyatiga o'z hissalarini qo'shdilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: “O‘zbekiston tarixi” jurnali, 1999 yil 1-son;
2. Abduzuhur A. “Turkiy xalqlarning tillari va tarixi” .- T.: “O‘zbekiston adabiyoti va san'ati” gazetasi, 8-son, 1993-yil 19-fevral;
3. Abdurahmonov G. O‘zbek xalqi va tilining shakllanishi to‘g‘risida. T.: TDSHI 1999;
4. Ahmedov B.A. O‘zbekiston xalqlari tarixining manbalari.-T.: O‘qituvchi, 1991;
5. Jabborov I. O‘zbek xalqi etnografiyasi. – T .: O‘qituvchi, 1994;
6. Mahmud Koshg‘ariy. “Devonu lug‘otit turk”. – T.: Fan, 1963;
7. Mirzaeva D. Kokturk writing and different ideas in its study. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*. 2021; 11 (4): 1144-1148.
8. Mirzayeva D. Turk xoqonligi davlatchiligi tarixi va ularni aks ettiruvchi manbalar. *Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS)*. 2022; 2 (4): 217-221.
9. Mirzayeva D. Tarixiy adabiyotlarda eftalitlar va Turk xoqonligi tarixining yoritilishi. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*. 2021; 1 (1): 111-119.
10. Mirzayeva D. Farg‘ona vodiysi G‘arbiy Turk xoqonligi davrida. Farg‘ona davlat universiteti “Ilm-zakovatimiz – senga, ona-Vatan!” mavzusidagi Respublika onlayn ilmiyamaliy anjuman materiallari. 2022; 132-133.